



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-iyul

155-5-74-Q/25

Nurota tumani hokimligi

Tuman mahalliy budjetining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami 63,7 million so'm mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ning 28, 73-moddalariga asosan, tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Bo'riyevning 2025-yil 24-iyundagi 02-02/78-sonli, tuman hokimi o'rinbosari Sh.Vafojevning 2025-yil 1-iyuldagi 05-05/79-sonli, tuman hokimligi axborot xizmati boshlig'i L.Mansurovning 2025-yil 13-iyundagi 05-/2230-sonli bildirgilari, tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2025-yil 2-iyundagi 01-15/136-son hamda tuman Tibbiyot birlashmasining 2025-yil 20-iyundagi 05-0310-sonli xatlarini inobatga olib "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 21¹-, 27-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i (A.Bo'riyev) mahalliy byudjetning zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan tuman hokimligiga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-maydagi 239-33-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Yo'riqnoma talablari asosida tuman hokimligida maxfiylik tartiboti va maxfiy ish yuritishni yo'lga qo'yish uchun har xil turdagi ro'yxatga olish kitoblarini tayyorlatish xarajatlari uchun 1,0 million so'm;

tumanda 27-iyun kuni matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbir xarajatlari uchun 7,5 million so'm;

"Yoshlar kuni" bayram tadbiri jarayonlarini ijtimoiy tarmoqlarda jonli efir orqali namoyish qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun 3,5 million so'm;

hokimlik xodimlari ish samaradorligini oshirish maqsadida tuman hokimligiga 1 dona monoblok kompyuter qurilmasi sotib olish xarajatlari uchun 19,7 million so‘m, tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga:

tuman markaziy ko‘chalari va hiyobonlarda obodonlashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida 5 tonna ohak maxsuloti xarid qilish uchun 10,0 million so‘m,

tuman tibbiyot birlashmasiga – tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar vaqti dasturi asosida joriy tamirlash ishlarini bajarish maqsadida qurilish materiallari sotib olish xarajatlari uchun 22,0 million so‘m, jami 63,7 million so‘m mablag‘ ajratsin.

2. Tumandagi byudjet tashkilot va muassalari ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Bo‘riyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev